

XUSUSIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Gulmatov Bahodir Xabibullayevich

University of Business and Science (UBS)
tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada xususiy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarishni takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Xususan, Namangandagi *University of Business and Science (UBS)* faoliyati misolida ta'lim sifatining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlari SWOT-tahlil asosida baholandi. Xalqaro tajribalar — TQM, EFQM Excellence Model tahlil qilinib, ularning milliy sharoitga tatbiq etish imkoniyatlari ko'rsatildi. Shuningdek, Prezident farmonlari, xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlari asosida ta'lim sifatini boshqarishning metodologik asoslari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, UBS universiteti misolida sifatni oshirishning innovatsion mexanizmlari ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: Xususiy oliy ta'lim, ta'lim sifati, boshqaruv tizimi, UBS universiteti, SWOT-tahlil, xalqaro standartlar, TQM, EFQM.

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования управления качеством образования в негосударственных высших учебных заведениях. На примере деятельности *University of Business and Science (UBS)* в Намангане проведён SWOT-анализ сильных и слабых сторон, возможностей и угроз в обеспечении качества образования. Изучены международные подходы — TQM, EFQM Excellence Model и ISO 21001:2018, а также показаны возможности их адаптации к национальным условиям. Кроме того, на основе указов Президента, исследований зарубежных и отечественных учёных разработаны методологические основы управления качеством образования. По результатам исследования даны предложения и рекомендации по созданию инновационных механизмов повышения качества образования в частных университетах.

Ключевые слова: Частное высшее образование, качество образования, система управления, университет UBS, SWOT-анализ, международные стандарты, TQM, EFQM.

Abstract

This article examines the issues of improving the management of education quality in private higher education institutions. Using the example of the *University of Business and Science (UBS)* in Namangan, a SWOT analysis was conducted to assess the strengths, weaknesses, opportunities, and threats in ensuring educational quality. International approaches — TQM, EFQM Excellence Model, and ISO 21001:2018 — were analyzed, highlighting their applicability to the national context. In addition, based on presidential decrees, as well as the research of foreign and local scholars, methodological foundations for quality management in education were developed. The

study provides practical recommendations for introducing innovative mechanisms to enhance education quality in private universities.

Keywords: Private higher education, quality of education, management system, UBS University, SWOT analysis, international standards, TQM, EFQM.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda oliy ta‘lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonning asosiy maqsadi ta‘lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish, yoshlarning bilim va ko‘nikmalarini zamonaviy talablar darajasiga ko‘tarishdan iboratdir. Davlat oliy ta‘lim muassasalari bilan bir qatorda xususiy oliy ta‘lim muassasalari ham faoliyat yuritib, ular ta‘lim tizimida raqobat muhitini shakllantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Shu bois xususiy oliy ta‘lim muassasalarida sifatni boshqarish tizimini samarali tashkil etish va uni doimiy takomillashtirib borish dolzarb masalalardan biridir.

Ta‘lim sifati tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, u nafaqat o‘quv dasturlarining mazmuni va o‘qituvchilar salohiyatini, balki talabalar bilimini baholash, infratuzilma, ta‘lim jarayonida qo‘llanilayotgan pedagogik texnologiyalar, ilmiy faoliyat darajasi va bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ham o‘z ichiga oladi [1]. Shu nuqtayi nazardan, xususiy oliy ta‘lim muassasalarida sifatni boshqarish mexanizmlarini yaratish va rivojlantirish ta‘lim tizimining barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan oliy ta‘limni modernizatsiya qilish, ta‘lim sifatini oshirish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha qator muhim farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, Prezidentning 08.10.2019 yildagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida oliy ta‘lim qamrovini bosqichma-bosqich oshirish, xususiy sektorni keng jalb etish va ta‘lim sifatini samarali boshqarish mexanizmlarini shakllantirish masalalari alohida ko‘rsatib o‘tilgan [2]. Bunda ta‘lim jarayonida sifat monitoringi tizimini yaratish, talabalar bilimini baholashning zamonaviy usullarini joriy etish va xususiy oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash muhim o‘rin tutadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro tajribada ta‘lim sifatini boshqarishda bir qator yondashuvlar mavjud. Deming va Juran kabi sifat menejmenti nazariyachilari esa ta‘limda “Total Quality Management (TQM)” tamoyillarini joriy qilish orqali uzluksiz takomillashuvni ta‘minlash mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bergan [3]. Shuningdek, Yevropa Ittifoqida keng qo‘llanilayotgan “EFQM Excellence Model” ta‘lim muassasalarida samarali boshqaruvni yo‘lga qo‘yish, talabalar ehtiyojlariga moslashuvchan tizim yaratish va natijaviylikni oshirishda keng qo‘llanmoqda [4].

Xalqaro tadqiqotlarda UNESCO va OECD ekspertlari ham ta‘lim sifatini baholash mezonlari, akkreditatsiya jarayonlari va xalqaro reytinglarning ahamiyati haqida ilmiy ishlanmalar olib borganlar. Ularning xulosalariga ko‘ra, ta‘lim sifatini

samarali boshqarish uchun davlat siyosati, muassasalarning ichki nazorati va mustaqil baholash tizimi uyg'unlashgan holda ishlashi lozim [5].

Mahalliy olimlardan A. Abduqodirov, B. Khodjayev va S. Nishonovlar O'zbekistonda oliy ta'lim sifatini oshirish yo'llarini o'rganib, ta'limni boshqarishda innovatsion yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar va raqamli boshqaruv vositalarini joriy qilish zarurligini ta'kidlaydilar [6]. Shuningdek, ularning xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarida O'zbekiston ta'lim tizimini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish, talabalar bilimni baholashda kredit-modul tizimidan samarali foydalanish va sifat kafolatlashning zamonaviy mexanizmlarini tatbiq etish masalalari yoritilgan [7].

O'zbekistonlik olimlar xalqaro tadqiqotlarda ham faol ishtirok etishmoqda. Masalan, "QS World University Rankings" va "Times Higher Education" reytinglariga tayyorlangan ilmiy hisobotlarda respublikadagi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini o'rganishda mahalliy tadqiqotchilar ma'lumotlari asos qilib olingan [8]. Bu esa O'zbekiston olimlarining ilmiy ishlari xalqaro miqyosda e'tirof etilayotganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy va mahalliy tadqiqotlarning umumiy mazmuni shuni ko'rsatadiki, xususi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarishni takomillashtirish uchun xalqaro tajribani chuqur o'rganish, milliy modelni ishlab chiqish va ichki sifat monitoringi tizimini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada nazariy, empirik, aralash usullar, statistik ma'lumotlar, Prezident farmonlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, UBS universiteti faoliyati haqidagi rasmiy manbalari. SWOT-tahlil, qiyosiy tahlil usullari qo'llanilgan.

Xususi oliy ta'lim muassasalarida sifatni baholashda quyidagi asosiy ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

- o'quv dasturlari va ularning zamonaviyligi;
- professor-o'qituvchilar tarkibining malakasi va ilmiy salohiyati;
- talabalar bilimni nazorat qilish va reyting tizimlari;
- moddiy-texnik baza va raqamli infratuzilma;
- ilmiy tadqiqotlar va xalqaro hamkorlik darajasi;
- bitiruvchilarning bandlik darajasi va ish beruvchilar tomonidan e'tirof etilishi.

Ushbu ko'rsatkichlarni aniqlashda so'rovnomalar, intervyular, benchmarking, SWOT-tahlil va boshqa usullardan foydalanish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan xususi oliy ta'lim muassasalari ta'lim sifatini boshqarishda qator yutuqlarga erishmoqda. Jumladan, ko'plab muassasalarda xorijiy professor-o'qituvchilarni jalb qilish, zamonaviy o'quv dasturlarini tatbiq etish, raqamli platformalar orqali ta'lim jarayonini boshqarish yo'lga qo'yilgan. Biroq mavjud tizimni takomillashtirish uchun bir qator muammolar mavjud. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Ta'lim dasturlarining xalqaro me'yorlarga to'liq mos kelmasligi.

2. Ichki sifat monitoringi tizimlarining yetarli darajada shakllanmaganligi.
3. Talabalar va bitiruvchilar fikrlarini hisobga olish tizimining sustligi.
4. Akkreditatsiya va reyting tizimlarida ishtirok etish ko‘lamining cheklanganligi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun xususiy oliy ta‘lim muassasalari quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishlari lozim:

- Ichki sifat kengashlari tashkil etish va muntazam ravishda sifat auditi o‘tkazish.
- Talabalar va ish beruvchilar fikrini tizimli o‘rganish asosida o‘quv dasturlarini yangilab borish.
- Raqamli boshqaruv vositalarini keng joriy etish va sun‘iy intellekt asosida sifat monitoringi tizimlarini ishlab chiqish.
- Xalqaro akkreditatsiya markazlari bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda ISO 21001:2018 standartini tatbiq etish.

Namangan shahrida joylashgan University of Business and Science “UBS” 2022-yil 5-oktyabrda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan litsenziyalangan nodavlat oliy ta‘lim muassasidir. Bugungi kunda universitetda 49 ta bakalavriat, 14 ta magistratura, va 5 ta doktorantura yo‘nalishlari mavjud, ular mamlakat talablariga mos tarzda tashkil etilgan. Talabalar soni taxminan bugungi kunga kelib 25 mingdan ortiq, professor-o‘qituvchilar (shuningdek doktorantlar) soni ham ancha yuqori — shu jumladan 30 nafardan ortiq doktorantlar faoliyat yuritadi. Universitet Toshkent va Namangan viloyatlarida jami 5 ta zamonaviy kampusga ega bo‘lib, talabalar uchun qulay yotoqxona, kompyuter xonalari, kutubxona va tadbirlar zali mavjud [9].

UBS ta‘lim sifatini ta‘minlashda bir qancha tizimli chora-tadbirlarni joriy qilmoqda:

Grantlar va stipendiyalar tizimi: Har semestrda o‘qishdagi yuqori natijalarni ko‘rsatgan talabalar uchun grantlar ajratiladi; bugungi kunda 1000 dan ortiq talaba ushbu imkoniyatdan foydalanadi.

Ijtimoiy imtiyozlar: IELTS, CEFR, Milliy til sertifikatiga ega bo‘lgan abituriyentlar uchun kontrakt to‘lovda chegirmalar beriladi. “Friends” va “Family” dasturlari orqali birga o‘qiydigan talabalar, opa-singil, aka-uka yoki turmush o‘rtog‘i bo‘lganlar uchun 10% chegirmalar mavjud [10].

UBS universiteti xalqaro hamkorlikni keng yo‘lga qo‘ygan. Jumladan:

AQSh, Janubiy Koreya, Germaniya, Turkiya, Rossiya, Malayziya, Qozog‘iston kabi davlatlardagi yetakchi oliygohlar bilan 3+1 va 4+0 qo‘shma dasturlar amalga oshirilmoqda. Misol tariqasida Illinois Institute of Technology, Sejong, Dongshin va Kyungdong universitetlari bilan hamkorliklar bor

UBS‘da ta‘lim sifati bir necha omil orqali ta‘minlanmoqda:

- Zamonaviy moddiy-texnik baza va infratuzilma, ilg‘or o‘quv binalari bilan ta‘minlangan kampuslar
- Grant va chegirmalar orqali iqtidorli talabalarni rag‘batlantirish
- Xalqaro hamkorliklar orqali o‘qituvchilar va talabalar mobilitetini ta‘minlash
- Diplomi davlat oliygohlaridan farq qilmay, yuridik jihatdan teng ahamiyatga ega [11].

UBS Universiteti ta'lim sifati SWOT-tahlili [12]

<p>S – Kuchli tomonlari (Strengths)</p> <ul style="list-style-type: none"> • Keng yoʻnalishlar tanlovi: 49 ta bakalavriat, 14 ta magistratura va 5 ta doktorantura dasturlari mavjud boʻlib, taʼlim oluvchilar uchun katta imkoniyat yaratadi. • Xalqaro hamkorlik: AQSh, Janubiy Koreya, Germaniya, Turkiya kabi davlatlardagi universitetlar bilan qoʻshma dasturlar (3+1, 4+0) joriy qilingan. • Moddiy-texnik baza: 5 ta zamonaviy kampus, raqamli kutubxonalar, kompyuter xonalari, sport va madaniy infratuzilma mavjud. • Grant va stipendiya tizimi: talabalarni ragʻbatlantirish uchun muntazam grantlar, chegirmalar, “Family” va “Friends” dasturlari mavjud. • Talabalar soni: 25 mingdan ortiq talaba tahsil olayotgani uni yirik xususiy OTMlardan biriga aylantiradi. 	<p>W – Zaif tomonlari (Weaknesses)</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ilmiy faoliyatning cheklanganligi: xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar soni hali yetarli darajada emas. • Ichki sifat monitoringi tizimi: mavjud boʻlsa-da, uni xalqaro standartlarga (ISO 21001, EFQM) toʻliq uygʻunlashtirish zarur. • Professor-oʻqituvchilar tarkibi: xorijiy oʻqituvchilar jalb qilinayotganiga qaramay, mahalliy ilmiy salohiyatni oshirish va muntazam malaka oshirish tizimini kuchaytirish kerak. • Pedagogik innovatsiyalar: ayrim yoʻnalishlarda dars metodologiyalari anʼanaviy shaklda qolmoqda.
<p>O – Imkoniyatlar (Opportunities)</p> <ul style="list-style-type: none"> • Xalqaro akkreditatsiya olish: universitet taʼlim dasturlarini xalqaro standartlar asosida akkreditatsiyadan oʻtkazishi orqali raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. • Raqamli taʼlim platformalari: sunʼiy intellekt, AR/VR texnologiyalarini joriy etish orqali taʼlim sifatini oshirish imkoniyati mavjud. • Ilmiy loyihalarda ishtirok: xalqaro grantlar va loyihalarda faol qatnashish orqali ilmiy salohiyatni rivojlantirish. • Mahalliy va xalqaro reytinglarda ishtirok: UBSʼni QS va Times Higher Education reytinglariga kiritish orqali imidjini koʻtarish. • Regional markaz sifatida rivojlanish: Namanganda joylashgani sababli Fargʻona vodiysi uchun taʼlim, ilm-fan va biznes markaziga aylanish imkoniyati bor. 	<p>T – Tahdidlar (Threats)</p> <ul style="list-style-type: none"> • Raqobatning kuchayishi: Toshkent va boshqa viloyatlardagi yirik davlat hamda xususiy OTMlar bilan raqobat. • Mehnat bozorida talablar: taʼlim dasturlari zamon talablariga mos boʻlmasa, bitiruvchilarning bandligi past boʻlishi mumkin. • Moliyaviy barqarorlik xavfi: kontrakt asosida ishlovchi nodavlat universitet sifatida iqtisodiy tebranishlar taʼsirida barqarorlik muammolari yuzaga kelishi ehtimoli bor. • Xalqaro hamkorlikdagi qiyinchiliklar: geosiyosiy vaziyat yoki tashqi siyosiy omillar hamkorlik loyihalariga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Namangandagi University of Business and Science (UBS) oʻzining keng taʼlim yoʻnalishlari, xalqaro hamkorlik dasturlari va zamonaviy infratuzilmasi orqali xususiy oliy taʼlim tizimida muhim oʻrin egallamoqda. Biroq, taʼlim sifatini yanada oshirish uchun ichki sifat monitoringi tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, ilmiy-

tadqiqot faoliyatini kuchaytirish va professor-o'qituvchilarning malakasini muntazam oshirish zarur. Shuningdek, xalqaro akkreditatsiya tizimiga faol qo'shilish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng tatbiq etish, raqamli ta'lim platformalarini rivojlantirish orqali UBS ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Universitetning asosiy vazifasi nafaqat sifatli kadrlar tayyorlash, balki mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar yetishtirishdir. Shu bois, UBS o'z imkoniyatlaridan oqilona foydalansa, u nafaqat Farg'ona vodiysida, balki respublika miqyosida ham etakchi xususiy oliy ta'lim muassasalaridan biriga aylanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xususiy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish tizimi zamon talablariga mos ravishda takomillashtirib borilishi lozim. Bunda xalqaro tajribadan o'rganish, zamonaviy boshqaruv modellarini joriy etish, raqamli texnologiyalarni keng qo'llash va ichki sifat monitoringini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ta'lim sifatini boshqarishda talabalar va ish beruvchilar fikrini integratsiyalash, xalqaro akkreditatsiya jarayonida faol ishtirok etish xususiy oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Xususiy oliy ta'lim muassasalarida sifatni boshqarishni takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

1. Har bir muassasada sifatni ta'minlash bo'yicha ichki reyting tizimini joriy qilish.
2. Pedagogik innovatsiyalar markazlarini tashkil etib, o'qituvchilar malakasini doimiy oshirib borish.
3. Talabalar bilimni baholashda xalqaro standartlashtirilgan test tizimlaridan foydalanish.
4. Ilmiy faoliyat samaradorligini oshirish uchun grantlar va xalqaro loyihalarda faol ishtirok etish.
5. Bitiruvchilar monitoringini yo'lga qo'yib, ularning bandlik darajasini tahlil qilish orqali ta'lim dasturlarini takomillashtirish.

Har bir hususiy oliy ta'lim muassalarda ushbu yo'nalishlarini joriy qilish sifat oshishga ko'maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. UNESCO. Education 2030 Framework for Action. Paris, 2015.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvar PF-5618-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi va 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" <https://lex.uz/docs/-4149765>
3. Deming W.E. Out of the Crisis. MIT Press, 1986.
4. EFQM. EFQM Excellence Model. Brussels, 2020.
5. OECD. Education at a Glance 2022: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing, 2022.
6. Abduqodirov A. Oliy ta'limda sifatni boshqarish muammolari va yechimlari. Toshkent: Fan, 2019.

7. Khodjayev B., Nishonov S. Innovative Approaches in Higher Education Quality Assurance: The Case of Uzbekistan. International Journal of Higher Education, 2021.
8. QS Quacquarelli Symonds. QS World University Rankings Report 2022. London, 2022.
9. University of Business and Science “UBS” ma`lumotlari.
10. <https://kun.uz/news/2025/08/13/ubs-universiteti-ozbekistonda-xalqaro-talimni-rivojlantirishda-yangi-bosqich?>
11. <https://ubsu.uz/uz>
12. Muallif tadqiqoti natijalari.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Ingliz tili muharriri:

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Rus tili muharriri:

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Musahhah:

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, sentyabr, 9-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**